

RAQAMLI TA'LIMNING ZAMONAVIY O'QITISH JARAYONIDAGI O'RNI VA AFZALLIKLARI

Xurramova Iroda Sherali qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

irodaxurramova8@gmail.com

Ilmiy rahbari: Boqiyev Ramazon Abdurasulxon o'g'li

Samarqand davlat Pedagogika inistituti Iqtidorli

talabalarning ilmiy – tadqiqoqt faoliyatini

tashkil etish bo'limi boshlig'i

ramazonboqiyev97@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada raqamli ta'limning zamonaviy o'qitish jarayonidagi o'rni va afzalliklari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarni ta'lim sifatini oshirish mustaqil o'rganishni rivojlantirish va masofaviy ta'limni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается роль и преимущества цифрового образования в современном образовательном процессе. Анализируется важность цифровых технологий в повышении качества образования, развитии самостоятельного обучения и эффективной организации дистанционного обучения.

ANNOTATION: The article highlights the role of digital education in the modern teaching process and its key advantages. It examines how digital technologies improve education quality and support independent learning.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, zamonaviy o'qitish, axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, ta'lim sifati.

Ключевые слова: цифровое образование, современное обучение, информационные технологии, дистанционное обучение, электронные образовательные ресурсы, интерактивные платформы, качество образования.

Key words: digital education, modern teaching, information technologies, distance learning, e-learning, resources, interactive platforms, quality of education.

Hozirgi kunda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, ta'lim timiga ham kata ta'sir ko'rsatmoqda.

An'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda raqamli ta'lim keng joriy etilib, zamonaviy o'qitish jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Raqamli ta'lim o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta'lim tushunchasi.

Raqamli ta'lim – bu zamonaviy axborot texnologiyalari, internet tarmog'i, elektron platformalar va multimedia vositalari asosida tashkil e'tiladigan ta'lim jarayonidir. Ushbu ta'lim shaklida elektron darsliklar, video darslar onlayn kurslar va masofaviy ta'lim tizimlarida keng foydalaniladi. Raqamli ta'lim jarayoni yanada qulay, tezkor va samarali qilishga xizmat qiladi.

Zamonaviy o'qitish jarayonida raqamli ta'limning o'rni.

Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni yangi bosqichga olib chiqdi. O'qituvchi bilim beruvchi rolidan ko'ra, yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi vazifasini bajaradi. O'quvchilar esa mustaqil izlanish, axborotni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, raqamli ta'lim individual yondashuvni ta'minlab har bir o'quvchining ta'lim darajasi va qobiliyatiga mos ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi.

Boshqa tomondan, bugungi kunda ko'pchilikka qulay va foydali bo'lishi uchun masofaviy ta'lim hududiy cheklolrsiz bilim olishga sharoit yaratib, ta'limning ommabobligini oshiradi. Bunga qo'shimcha, masofaviy ta'limda o'qish jarayonida talabalar o'zining sohasi bo'yicha ishlashlari yoki o'zining ustida shug'ullanishlari uchun ajoyib imkoniyat bo'ldi.

Raqamli ta'limning afzalliklari.

Raqamli ta'limning asosiy afzaliklariga quyidagilar kiradi:

1. Ta'lim jarayonining qulayligi va moslashuvchanligi.
2. O'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish.
3. Ta'lim resurslaridan keng va tezkor foydalanish imkoniyati.
4. Ta'lim sifatini oshishi.
5. Vaqt va mablag' tejallishi.
6. Raqamli vositalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Raqamli soha yana ta'lim jarayonining moslashuvchanligini ta'minlaydi. An'anaviy ta'limda o'quvchi dars vaqtiga va joyiga qat'iy bog'langan bo'lsa, raqamli ta'limda bu cheklovlar bartaraf etiladi. O'quvchilar dars materiallarini istalgan vaqtda va istalgan joyda o'rganishlari mumkin. Bu esa ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'quvchilar istalgan joyda va istalgan vaqtda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lganida axborotga tezkor va keng kirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Elektron kutubxonalar va ochiq ta'lim resurslari bilim doirasini kengaytiradi va natijada bu vaqtning tejallishiga olib keladi. Bunga qo'shimcha, inklyuziv ta'lim rivojlanadi, ya'ni nogironligi bo'lgan yoki chekka hududlarda yashovchi shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Raqamli ta'lim ko'plab afzalliklarga ega bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Raqamli ta'limning yana bir muhim afzalligi — individuallashtirilgan ta'limni tashkil etish imkoniyatidir. Har bir

o'quvchining bilim darajasi, qiziqishi va o'zlashtirish tezligi turlicha bo'ladi. Raqamli platformalar orqali o'quvchilar o'zlariga mos topshiriqlarni bajarib, bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, raqamli ta'lim o'qituvchilar faoliyatini optimallashtiradi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, elektron jurnal va kundaliklar orqali o'qituvchilar vaqtini tejaydi hamda har bir o'quvchining bilim darajasini aniq tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy o'qitish jarayonida raqamli ta'lim muhim strategik o'rin egallaydi. Avvalo, u o'quvchi markazli ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi. O'quvchi endilikda ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli ta'limning yana bir muhim o'rni — ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashidir. Masofaviy ta'lim, onlayn darslar va elektron resurslar orqali o'quvchilar turli sharoitlarda ham ta'lim olishni davom ettira oladilar. Bu holat ta'lim tizimining barqarorligini oshiradi. Bundan tashqari, raqamli ta'lim o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham muhim rol o'ynaydi. U darslarni rejalashtirish, baholash va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish orqali o'qituvchining mehnatini yengillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim zamonaviy o'qitish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida samarali joriy etish orqali raqobartbardosh, bilimli va zamonaviy fikrlovchi kadrlarni tayorlash imkoniyati kengayadi. Shu bois raqamli ta'limni rivojlantirish va uni ta'lim tizimiga keng tadbiiq etish dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonova , N.A ., Ta'lim va taraqqiyot ilmiy- uslubiy jurnali “ 2025, 5- son, 77- bet.
2. Sodiqov, N.N Ta'lim va taraqqiyot ilmiy- uslubiy jurnali “ 2025 ,3- son , 369 – bet
3. UNESCO.Digital Education Transformation: Opportunities and Challenges, 2020-yil,22–29 bet.
4. Education in the Digital Age.2019-yil,34–41 bet